

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

6.2021

научно-теоритический методический журнал
Издаётся с 2001 года

Urganch – 2021

Bosh muharrir dotsent Ro'zimboy YO'LDOSHEV

	TAHRIR HAY'ATI:
<p align="center">JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN</p>	<p>ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori, ABDULLAYEV Ikrom, biologiya fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV Ilyos, iqtisod fanlari doktori, ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori, ANNAMURATOVA Svetlana, pedagogika fanlari doktori, professor, BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor, DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, DO'SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor, ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari nomzodi, IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, JO'RAYEV Mamatqul, filologiya fanlari doktori, professor, JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor, JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor, KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (mas'ul kotib), NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor, OLLAMOV Yarash, yuridik fanlari nomzodi, dotsent, OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor, PRIMOV Azamat, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor, RO'ZIMBOYEV Safarboy, filologiya fanlari doktori, professor, RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor, SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik, SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori, SAGDULLAYEV Anatoliy, tarix fanlari doktori, professor, SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor, SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori, SATIPOV G'oipnazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor, XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari), YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor, O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori, O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori, G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.</p>
<p align="center">JURNAL OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI</p>	
<p align="center">2021 6(168)</p>	

MUASSIS: Urganch davlat universiteti. Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyala agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan. GUVOHNOMA № 1131.

“O‘quv tahlili hamisha shaxslik xususiyatlariga tayanadi, chunki u jonli kishilar ishtirokida amalga oshiriladi va tahlil qatnashchilarida muayyan shaxslik fazilatlarini tarkib toptirishga yo‘naltiriladi. His-siyotga tayanib tahlil etilgandagina o‘quvchilar badiiy matnga ruhiy ko‘z bilan qaraydigan bo‘ladilar, shundagina ular asar ichiga “kiradilar”, qahramonlar bilan birga “yashay” boshlaydilar. Ular oddiy yozuv belgilari zamiriga ulkan insoniy taqdir, ta‘sirchan tuyg‘ular, hadsiz fojia va quvonchlar yashiringanli-gini his etadilar, ulami kashf qiladilar. Kashf etish esa shaxsni rivojlanishning yangi bosqichlari sari un-daydi”¹

Talabalar dars jarayonida “Klaster”dan foydalanib, “Badiiy adabiyot yoshlar ma‘naviyatiga qanday ta‘sir qiladi?” savoliga yozma tarzda javob beradilar. Matn yaratadilar. Uyda “Mening sevimli asarim” mavzusida esse yozadilar. Ikkala asardan olingan lug‘at so‘zlarini shakllantirish va tarjima qilish topshi-rig‘i ham uy vazifasi sifatida beriladi.

A.Navoiy hikoyasi bo‘yicha	L.N.Tolstoyning “Urush va tinchlik” romani bo‘yicha
1. Ustod-	1. 4 chaqirim-
2. Shatranj-	2. Ta‘bi xira bo‘lmoq-
3. Zeb-u oroyish bermoq-	3. Chekinmoq-
4. O‘tkir fikrli kishi	4. Hujum boshlamoq-
5. Tamsil-	5. Matonat ko‘rsatmoq-
6. Qo‘shinning chap qanoti-	6. Yarador bo‘lmoq-
7.	7.
8.	8.
9.	9.
10.	10.

“Bugungi kunda davlat tilini bilish har qanday mutaxassis uchun hayotiy ehtiyojga aylanib bora-yotgan ekan, bu jarayonda o‘zbek tili darslarida o‘zbek adabiyotini o‘rganish bosqichiga o‘tish, o‘zbek ti-lidagi badiiy matnga badiiy asar tarzida yondashish eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi. Chunki badiiy adabiyot, u qog‘oz yoki elektron ko‘rinishda bo‘ladimi, ruhiy-axloqiy tarbiya berish, estetik zavq olish va intellek-tual faoliyat ko‘rsatish manbayi bo‘lish bilan birga, til o‘rganishda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan vosita hamdir.

Ma‘lumki, har qanday tili o‘rganilayotgan xalqning madaniyati, milliy mentaliteti shu elning adabi-yotida to‘liq aks etadi. Bundan tashqari, o‘rganilayotgan tilning bor go‘zalligi, injaliklari ham uning ba-diiy so‘zida yorqinroq namoyon bo‘ladi. Shu bois talabaning o‘zi o‘rganayotgan tilda badiiy asar o‘qishi unga yangi madaniyatni, atrofidagi odamlarni bilishdan tashqari, oradagi madaniy begonalikni yo‘qotish, tili o‘rganilayotgan xalqning milliy psixologiyasini anglash, shu xalqning ma‘naviy ildizlarini his etish imkoniyatini ham beradi”²

Xulosa tarzida shuni aytishimiz mumkinki, barkamol shaxsni tarbiyalashda, ularning davlat tilidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda, obrazli tafakkur, nutqiy savodxonligiga erishishda adabiy ta‘lim saviyasini oshirishimiz, barcha oliy o‘quv yurtlarida adabiyot o‘qitishni yo‘lga qo‘yishimiz zarur.

**Muxtorova Maftuna Ilhomovna (BuxDU Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrasida o‘qituvchisi)
O‘ZBEK SHE‘RIYATINING INGLIZCHA O‘GIRMALARIDA VATANPARVARLIK G‘OYASI
IFODASIDA SO‘Z TANLASH MUAMMOSI**

Annotatsiya. Maqolada Hamid Olimjon va Abdulla Oripov she‘rlari namunalarining ingliz tili tar-jimalarida so‘z tanlash muammosi va vatanparvarlik g‘oyasi tahlillari, asliyat hamda tarjimalardagi g‘o-yalar mushtarakligi yoritib berilgan.

Аннотация. В статье рассматривается проблема выбора слова в английских переводах об-разцов стихов Хамида Олимжона и Абдуллы Арипова, анализ патриотических идей, общность идей в оригинале и переводах.

¹ Yo‘ldoshev Q. O‘qituvchi kitobi. T., “O‘qituvchi”, 1997, 19-bet.

² Husanboyeva Q.P. Oliy ta‘lim muassasalarida davlat tilini o‘qitish bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimi. Texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek va xorijiy tillarni o‘qitishning dolzarb masalalari (Nazariya, metodika, texno-logiya). Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T., 2020, 5-bet.

Annotatsiya. The article deals with the problem of word choice in English translations of samples of poems by Khamid Olimjon and Abdulla Aripov, the analysis of patriotic ideas, the originality and commonality of ideas in translations.

Kalit soʻzlar: oʻzbek sheʼriyati, vatanparvarlik, mutarjim, asliyat, oʻgirma, mushtarak gʻoya, toponim, ekvivalent.

Ключевые слова: узбекская поэзия, патриотизм, переводчик, оригинальность, перевод, общая идея, топоним, эквивалент.

Keywords: Uzbek poetry, patriotism, translator, originality, translation, common idea, toponym, equivalent.

Sheʼriy muqobillikka erishish sheʼriyatda keng qoʻllaniladigan alliteratsiya, assonans, qofiya, oʻzbek sheʼriyatida bunga qoʻshimcha ravishda radif fikrni chiroyli va mazmunli, ifoda etishga xizmat qiladi. Agar yuqorida zikr etilgan fonetik stilistik vosita va usullar fikrni chiroyli va mazmunli ifoda eta olmasa va bu tarjimada formal vazifanigina bajargan boʻlsa, sheʼr mazmuniga putur yetadi, aksariyat hollarda, sheʼriy tarjima matni asliyat matnidan uzoqlashib qoladi.¹

Yuqorida zikr etilgan vazifalardan kelib chiqib, Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat kengashi Milliy gʻoya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan tasdiqlangan L.Penkovskiy, V.Lipko, N.Ushakov, O. Moʻminov, B.Ahmedova va boshqa bir qator tarjimonlarning koʻp asrlik oʻzbek sheʼr sanʼati noyob namunalarining oʻzbek, rus va ingliz tillarida jamlangan “Oʻzbek sheʼriyati” toʻplami nashr etildi. Unda turkiy va forsiy tillari gʻazal mulkining sultoni boʻlmish Navoiy asarlaridan tortib, to XX asr buyuk shoirlari, Oʻzbekiston Qahramonlari Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlarning eng sara ijod mahsullaridan namunalar va ularning rus va ingliz tillariga oʻgirmalari oʻrin olgan. Ularni mushtarak qadriyatlar – komil insonni tarbiyalash, tinchliksevarlik va vatanparvarlik ruhini singdirish, adolatlilik, insoniy mehr-muhabbat, muxtasar qilib aytganda, milliy istiqlol ezgu gʻoyalari birlashtirib turadi.

XX asr oʻzbek adabiyoti namoyandalaridan biri ham shoir, ham publitsist Hamid Olimjon sheʼrlari mazmuni, asosan, Vatanni sevish, uni onadek eʼzozlash tinchlik qadri, oʻz kindik qoni toʻkilgan zaminning nechogʻlik muqaddasligini tom maʼnoda sheʼrxonlarning yurak-yuragiga singdira oluvchi eng oliy insoniy his-tuygʻular oʻrin olgan. Shoirning ana shunday goʻzal kechinmalarni soʻzlar orqali oʻzida mujassamlashtirgan “Oʻzbekiston” sheʼri va uning inglizcha tarjimasi xususida fikr yuritishni lozim topdik.

Dastavval, sheʼrning sarlavhasiga eʼtibor qaratsak, “Oʻzbekiston” soʻzi ingliz tili variantida “Uzbekiston” deb berilganligiga guvoh boʻlamiz, vaholanki, “Oʻzbekiston” soʻzi toponomik lugʻatga, asosan, ingliz tilida “Uzbekistan” deb tarjima qilinadi. Tarjimonning oʻgirmada nega aynan “Uzbekiston” deb bergani bizga nomaʼlum. Mazkur sheʼrning ingliz tili oʻgirmasida birmuncha xatoliklar mavjudligini quyida keltiradigan misralar tahlilidan bilib olish mumkin:

Asliyatda:

Vodiyilarni yayov kezganda,

Bir ajib his bor edi manda...

Chappar urib gullagan bogʻin,

Oʻpar edim Vatan tuprogʻin.²

Tarjimada:

Whenever I roam through my native parts,

A wish takes birth in my heart of hearts

To kiss every spot of this flowering land,

As a lover kisses his sweetheart's hand...³

Sheʼrning 1-misrasidagi “yayov kezganda” va “vodiyilarni” soʻzlari ingliz tiliga tarjima qilinganda “roam” va “native parts” kabi berilishi tarjimonning soʻz tanlashda biroz xatolikka yoʻl qoʻyilgan, degan xulosani keltirib chiqaradi. Sababi oʻzbek tilidagi “yayov kezganda” birikmasi ingliz tilidagi “roam” (darbadar kezmoq, gandaraklab yurmoq) soʻzi emas, balki “stroll” (sayr qilmoq, tomosha qilib yurmoq, aylanib yurmoq) feʼli bilan mutanosibdir. Garchi har ikkala “roam” va “stroll” feʼllari “piyoda (yayov) yurish” holatlarida qoʻllanilsa-da, stilistik jihatdan shoirning “Vodiyilarni yayov kezganda” jumlasiga aynan “stroll” soʻzi mosdir. Xuddi shunday “vodiyilarni” soʻzi ham tarjimada “valleys” soʻzi bilan berilganda

¹ Gʻafurov I. Tarjima nazariyasi. Toshkent, “Tafakkur boʻstoni”, 2012, 197-bet.

² Қўчқоров У. Ўзбек шеърляти тўплами. Т., “Маънавият”, 2010, 107 – 109-бетлар.

³ Ўша асар. 116–118-бетлар.

maqsadga muvofiq bo'lar edi. She'ning ikkinchi va to'rtinchi misralari esa mutlaqo boshqa ma'nolarni bergan. Bunda "ajib his borligi" tushunchasi "in my heart of hearts", ya'ni yuragimning tubida iborasi yordamida, 4-misra "O'par edim Vatan tuprog'in" esa "As a lover kisses his sweetheart's hand" "oshiq yorining qo'lini o'pishi" holatiga qiyoslanib o'girilgan.

Shunga qaramay, she'rdagi asl g'oya, "ona-Vatanga bo'lgan muhabbat" tushunchasi birmuncha tarjimada so'z tanlash muammolariga uchrab o'girilgan bo'lsa-da, saqlab qolingani. She'r ingliz tili variantida ham xuddi asliyatdagidek a-a-b-b tarzida qofiyalangan. Fikrimizcha, tarjimanni boshqa so'zlarni tanlashga majbur etgan sabab ham aynan shu, she'rda musiqiylik ohangini yaratishga intilishdir. Buning evaziga esa Hamid Olimjon nazarda tutgan va his etgan ko'pgina jumlar, umuman, boshqacha so'zlar yoki metaforik o'xshatishlar bilan berilgan.

Asliyatda:

*Odamlardan tinglab hikoya
O'sar edi shoirda g'oya.
Daryolardan kaylab o'tardim,
Ertaklarga quloq tutardim.¹*

Tarjimada:

*I listen with love to my people's tales,
To the song that ring over hills and dales,
And I echo them back to the rivers and rills,
To the verdant valleys and tree clad hills.²*

Asliyatdagi "odamlardan tinglab hikoya" misrasi tarjimada "I listen with love to my people's tales" tarzida, ya'ni "Men odamlarning hikoyalarini sevib tinglardim" deb berilgan. Aynan shu misra ma'no jihatdan bir xil bo'lsa-da, qolgan misralar esa mutlaqo boshqa jumlar bilan o'girilgan. "O'sar edi shoirda g'oya" so'zma-so'z tarjima qilinganda "The ideas grew in poet" deb berilgan bo'lar edi. Ammo mutarjim shoirda "g'oya o'sishi" tushunchasini tushurib qoldirgan va buning o'rniga qo'shimcha o'zgartirishlar kiritib, she'rni boyitgan.

"...To the songs that ring over hills and dales,
And I echo them back to the rivers and rills,
To the verdant valleys and tree clad hills."

Ya'ni, "...qoyalar va vodiylar uzra taralgan qo'shiqni tinglab uni daryo va soylarga, ko'm-ko'k vodiylar va daraxtlarga burkangan qoyalarga qayta aks etardim" deb to'ldirgan. Mutarjim bu to'ldirish bilan she'ning jilokorligini yanada boyitgan. Hatto tarjimani o'qigan har qanday inson Hamid Olimjon ta'riflagan yurt, O'zbekiston bahorini yam-yashil vodiylar, sharqiroq soylardan iboratligini fahmlaydi.

Shu bilan birga, mazkur she'rda ayrim qo'shimcha (yangi) ma'no beruvchi so'zlar ham yo'q emas. Garchi mutarjim ayrim jumalarda asliyatdagi ta'sirchanlikni saqlab qolish imkonini topa olmagan bo'lsa-da, ona yurt tasvirini qo'shimcha o'xshatishlar orqali bayon etgan:

Asliyatda:

*Hammasini tinglardim, ammo
O'xshashini topmasdim aslo.
O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston
O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.³*

Tarjimada:

*Fairer than any legend of old
Is my land today in its splendour untold
At its rises now in my mind it seems
Like a bed of flowers, like a land of dreams.
Embraced by the sky and kissed by the sun,
Sweet is your name, my Uzbekiston!⁴*

¹ Kўчқоров У. Ўзбек шеърини тўплами. Т., "Маънавият", 2010, 107-бет.

² Kўчқоров У. 116-бет.

³ Kўчқоров У. 107-бет.

⁴ Kўчқоров У. 116-бет.

Ko'rinib turibdiki, tarjimadagi birinchi va uchinchi qatorda aks etgan ma'nolar aslyatda mavjud emas, ammo mazmun jihatdan shoir nazarda tutgan hislarni aynan bera olmaganligi uchun qo'shimcha, to'ldirib turuvchi so'zlardan foydalanilgan. Tarjimada mutarjim ishini ikki xil tushunish mumkin: birinchisi, "O'zbekiston" so'zining asl nomini saqlash, ya'ni transliteratsiya orqali ifodalagan bo'lsa-da, biroq "o'" tovushining ingliz tilida mavjud bo'lmaganligi sababli, "u" tovushi bilan berilgan. Lekin "O'zbekiston" toponim bo'lib, uni ikki tilli lugatlarning geografik joy nomlari degan qismida "Uzbekistan" deb berilganligini kuzatamiz.

Xuddi shu ko'rinishda "Uzbekistan" deb berilganda qofiya ham saqlangan bo'lardi:

Embraced by the sky and and kissed by the sun,

Sweet is your name, my Uzbekistan!

Ingliz tilida berilgan misralar o'zbek tiliga o'girilsa quyidagi ma'nolarni aks ettiradi:

Bugun barcha afsonalardan ham ulug'i, beqiyosi bu mening yurtim.

Xayolimda go'yo gullar to'shamasi, orzular o'lkasidek.

Osmon quchar, quyosh o'par

Nomi shirin, O'zbekistonim.

Keltirilgan misralarda aslyatdan ingliz tiliga o'giruv jarayonida ayrim tushirib qoldirishlar, yangi ma'no qo'shish va ekvivalentlardan foydalanish, muxtasar aytganda, tarjimada so'z tanlash muammosi bilan adekvatlik yaqqol ko'rinib turibdi. Masalan, "bo'ston"¹ so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida keltirishicha, bog'-bo'ston, ya'ni yashnagan bog'lar va gulzorlar; gullab yashnagan, serbog' joy, bog'iston ma'nolarini beradi. "Guliston"² esa gul ekilgan bog', gulzor bog' ma'nolarini anglatadi. Ammo tarjimon "bo'ston" o'rnida "a bed of flowers" ya'ni "gullar to'shamasi", "guliston" so'zi o'rnida "a land of dreams", ya'ni "orzular o'lkasi" birikmalarini qo'llagan. Tarjimada she'riy qolipni saqlab qolish uchun "flowers" va "dreams" so'zlarini aslyatdagi "bo'ston" va "guliston" qofiyadoshlik hosil qilganidek ko'rinishda bergan.

Aslyatda:

Chiroylidir go'yo yosh kelin,

Ikki daryo yuvar kokilin;

Qorli tog'lar turar boshida,

Gul vodiylar yashnar qoshida.

Chor atrofga yoyganda gilam,

Aslo yo'qdir bundayin ko'klam.

Tog'lardagi qip-qizil lola

Bo'lib go'yo yoqut piyola.³

Tarjimada:

Oh, Mother, your beauty fills me with pride!

You are covered with flowers like a happy bride

Valleys like carpets lie at your feet,

With cup-like tulips and roses sweet.⁴

Yuqoridagi baytlarning qisqacha tahlilini ko'rib chiqsak: aslyatdagi "yosh kelin" tarjimada "young bride" deb emas, balki "happy bride" ya'ni "baxtli kelin" tarzida berilgan. Tarjimon H.Olimjonning "Ikki daryo yuvar kokilin" yurtimiz hududi Amudaryo va Sirdaryolar orqali to'yinishi nazarda tutilgan jumlaning tarjimada qayd etmagan, buning evaziga gullar bilan o'ralgan baxtli kelin – "covered with flowers like a happy bride" tushunchasini kiritgan. Bundan tashqari, ikkinchi misrada ko'rib turganimizdek, onaga murojaat "Oh, Mother..." undalmasi ham aslyatda mavjud emas. Ammo she'riy parchaning umumiy ma'nosidan kelib chiqib, Vatanni onaga qiyoslab atash juda go'zal ijodiy tarjimaga misol bo'lgan.

XX asr o'zbek she'riyati vatanparvarlik, insoniylik, mehr-muhabbat, jasorat va mardlik singari g'oyalarni qamrab olgan bo'lib, Hamid Olimjon va Abdulla Oripov ijodlarida mazkur g'oyalarning yoritilishini qiyoslasak:

Aslyatda:

Vodiylarni yayov kezganda,

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд, Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006, 351-бет.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд, 518-бет.

³ Қўчқоров У. Ўзбек шеърини тўплами. 107-бет.

⁴ Қўчқоров У. 116 – 117-бетлар.

*Bir ajib his bor edi manda...
Chappar urib gullagan bog'in,
O'par edim Vatan tuprog'in.¹*

Tarjimada:

*Whenever I roam through my native parts,
A wish takes birth in my heart of hearts
To kiss every spot of this flowering land,
As a lover kisses his sweetheart's hand...²*

Endi shoir Abdulla Oripov tomonidan yozilgan O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi so'zlariga razm solsak:

Asliyatda:

*Oltin bu vodiylar jon O'zbekiston
Ajdodlar mardona ruhi senga yor
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon
Olamni mahliyo aylagan diyor!³*

Madhiya ingliz tiliga Ibrohim Yuksel tomonidan o'girilgan:

*These golden valleys-dear Uzbekistan,
Manly spirit of ancestors is companion to you!
When the great power of people became exuberant
You are the country that amazes the world!⁴*

Yuqorida keltirilgan har ikkala shoirning ijodidan ko'rinib turibdiki, Vatan tasviri, uning aziz va muqaddasligi she'rlardagi har bir so'zda aks etib turibdi. Mazmun jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, har ikkala shoirda ham mushtarak g'oya, ona-Vatan tasviri, uning muqaddasligi o'xshash tushunchalar orqali ifodalangani guvoh bo'lish mumkin. Har ikkala shoir "vodiy" so'zidan foydalanib, u zaminning qiyosi yo'q darajada go'zalligini hissiyotlarga berilib ifodalashgan. Tarjimalarda bitta "vodiy" so'zining o'zi ikki xil keltirilgan. Jumladan, Hamid Olimjonning "O'zbekiston" she'rining inglizcha o'girmasida "vodiy" – "native parts", A.Oripov tomonidan yozilgan Davlat madhiyamiz so'zlarining she'rining Ibrohim Yuksel tomonidan qilingan inglizcha tarjimasida "valleys" so'zi orqali o'girilgan.

Milliy o'zlikni anglash, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, jamiyatimizda bag'rikenglik, ahillik, o'zaro hurmat muhitini mustahkamlashda, eng muhimi, yoshlarni har jihatdan barkamol insonlar etib voyaga yetkazishda bu katta ahamiyat kasb etmoqda. O'zbek she'riyatidurdonalarini o'rganish, tadqiq etish, chet tillarga o'girish, ularda mujassamlashgan ma'naviy imkoniyatlardan bugungi ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarda foydalanish jamiyatimiz a'zolarini, shuningdek, yosh avlodni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashga undaydi. "Komil inson" tushunchasi esa, o'z navbatida, Vatanga muhabbat, el-yurt qayg'usi, axloqiy tarbiya, go'zallik va muhabbat, mehr-muruvvat, mehnatga sadoqat va adolat uchun kurash g'oyalari bilan yo'g'rilgan.

Badiiy tarjima juda murakkab jarayonni o'z ichiga qamrab oladi. Bu murakkablik, ayniqsa, she'riy asarlar tarjimalarida yaqqol namoyon bo'ladi. She'riy tarjima ham xuddi she'r kabi ilhom kelganda, asarga kuchli ta'sir sezilgandagina dunyoga keladi. Buning uchun har qanday mutarjim shoir ijod namunasini xuddi o'z ishidek, o'z ijod mahsulidek bilishi, undagi so'zlarning tub mohiyatini sezishi, g'oyani fahmlay olishi lozimdir. Aks holda, u yaratgan tarjima kitobxonga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Tarjima shu darajada mahorat bilan qilingan bo'lishi kerakki, uni o'qigan har qanday kishi asl ijod namunasi kimga tegishli ekanligini anglay olsin.

Xulosa qilib aytganda, she'riy tarjimada so'z tanlash muammosi o'ta dolzarb va tarjima qilinayotgan har qanday she'r ham shakl va ham mazmun jihatdan, iloji boricha, asliyatga monand berilishi nihoyatda mushkul. Ikki til she'riy sistemasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, har qanday tildagi she'r noyob ijod mahsuli sanaladi. Uni mahorat bilan boshqa tilga o'girish esa haqiqiy san'atdir.

¹ Кўчқоров У. Ўзбек шеърини тўплами. Т., "Маънавият", 2010, 107-бет.

² Кўчқоров У. 116-бет.

³ O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi. A.Oripov so'zi.

⁴ The national anthem of the Republic of Uzbekistan. The translation of I.Yuksel.

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA

Abdullayev Bahrom Ismoilovich, Kadirova Maxliyo Boboxon qizi. Kuchli m – subgarmonik funksiyalar-ning chetlatiladigan maxsuslik to‘plamlari haqida.....	3
Атамуратов Алимардон Абдримович, Тураханов Исламбек Фарходович. О регулярной параболичности дополнения графика целых функций и полиномиальные базисы.....	7
Алижон Раззаков, Даврон Курбанов, Дурдона Кошчанова, Кувондик Кодиров, Жамилжон Халиллаев, Жалолiddин Раззаков. Зависимость плотности дислокаций твердого раствора $SI_{1-x}GE_x$ от энергии поверхностного натяжения, выращенного из оловянного и галлиевого раствора-расплава.....	13

AXBOROT TEXNONOLOGIYALARI

Qutliyev Uchqun Otoboyevich, Avazov Erkinjon Sherimmatovich, Muradov Muhammad Murod o‘g‘li. Telekommunikatsiya tarmog‘i marshrutlash masalasini graflar orqali ifodalash va yechish.....	18
--	----

BIOLOGIYA

Babadjanova Sayyora Xushnudovna, Sultonov Mansurbek Farxod o‘g‘li. Xorazm vohasida tarqalgan xalqaro va O‘zbekiston “qizil kitobi”ga kiritilgan noyob baliqlarning tur tarkibi va ayrim bioekologik xususiyatlari.....	23
--	----

FALSAFA

Абдуллаев Акмал Насриддинович. Мамлакатимизда фуқаролик жамиятини ривожлантириш ва ислоний кадриятларни юксалтириш соҳасидаги ислохотларнинг ўзаро алоқадорлиги.....	26
Саидмуродов Жобиржон Боймурод ўғли. Гегель ижтимоий фалсафасида эркинлик масаласи.....	29
Исмоилов Собиржон Тўрабекович. Президент Шавкат Мирзиёев асарларида комил инсон фазилатлари талқини.....	32
Абдивоҳидов Сунатилло Абдинабиевич. Ёшларнинг комил инсон бўлиб етишишида жадид маърифатпарварлари маънавий меросининг фалсафий-тарихий аҳамияти.....	35
Шарипов Абдуҳакимжон Зиётдинович. Мафкуравий жараёнлар: тарихий-фалсафий таҳлил.....	38
Абдуллаева Насиба. Чингиз Айтматов асарларида анимистик ва тотемистик қарашлар.....	43

TILSHUNOSLIK

Эрназарова Манзура Сапарбоевна. Нутқий системада лисоний ва нолисоний омиллар.....	48
Душаева Умида. Компаратив фразеологик бирликларнинг испан тили изохди лугатларида қўлланишининг ўзига хос семантик хусусиятлари.....	53
Отамуродова Дилафруз. Диалогларнинг лингвопрагматик ва лингвомаданий хусусиятларининг Андре Моруа новелларидаги ифодаси.....	57
Якубова Нодирахон Давлатбой қизи. Тилшуносликда энигматик матнларнинг тадрижий тараққиёти.....	60
Умурзоқова Марҳабо Эгамбердиевна. Матнда вертикал муносабат ва унинг ўзига хосликлари хусусида.....	63
Sharipova Aziza Abdumanapovna. Корпус лингвистикасини ривожлантиришда стилистик даражаланиш ва стилистик синонимларни аҳамияти.....	66

ADABIYOTSHUNOSLIK

Eshchanova Gavhar, Yo‘ldoshev Ro‘zimboy. “Asav Baraq” – qozoq xalqining sevimli dostoni.....	71
Мухитдинова Назмия Муслихиддиновна. Мирҳасан Садоий мухаммасларида салафлар анъаналари.....	76
Qarshiyev Komil Abdikarimovich. G‘azalning tematik tadriji haqida ba‘zi mulohazalar.....	81

PEDAGOGIKA

Байджанов Бекзод Хангбоевич. Ўқувчи-ёшлар таълим-тарбиясида зарарли ахборотлар – педагогик муаммо сифатида.....	84
---	----

Муталов Саидакбар Хамидулло ўғли. Талабаларда лидерлик қобилиятини ривожлантиришнинг ай- рим методологик масалалари.....	88
Usmonova Lola Mallayevna. Oliy ta'lim muassasalarida "anorganik kimyo" fanidan o'quv testlaridan foydalangan holda o'qitish uslublarini takomillashtirish.....	92
Abduraxmonova Mehribon Do'stimurodovna. Aralash ta'lim-ta'lim sifatini oshirish vositasi sifatida.....	95
Eshchanova Gulbahor Husanboevna. Ta'limda yangi innovatsion modelni tatbiq qilishning ahamiyati.....	100
Babayev Otabek Abdikarimovich. Boshqaruv sohasi mutaxassislarining malaka oshirishida ta'limning roli.....	103
Нуруллаева Шахло Уктамовна. Педагогик жараёндаги зиддиятлар ва уларнинг позитив жиҳатла- ри.....	106
Хамидова Нигора Тулкиновна, Хуррамов Мансур Мусурман ўғли. Эффективность образовательных технологий в непрерывном образовании и новые направления подхода к личности.....	109
Hasanova Xurshidabonu Baxtiyarovna. General Tactics and Strategies for Asking Questions in the EFL Classrooms.....	112

ILMIY AXBOROT

Алимов Давронбек Мамасолдиевич, Миршод Джумакулович Эрмаматов, Абдулазиз Расулжонович Саттiev, ЗоиД Зоҳидович Мирвалiev, Акмал Асқарович Сулаймонов. "Математика" фанидан тест синови натижаларининг замонавий тест назарияси асосида статистик таҳлили.....	116
Ўролова Дилшодабону Олимжон кизи. Ёшлар сиёсий-ҳуқуқий маданиятини ошириш –Ўзбекистон- да ёшларга оид давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида.....	119
Мухаммадиева Олия Нарзуллаевна, Рашидов Камрон Камолитдинович. Хотин-қизларнинг жамият- даги мавқеи–гендер тенглик барқарорлигининг омили сифатида.....	123
Бегимкулов Журабек, Давлетов Расулбек. Жиззах вилоятини иқтисодий ривожлантириш масалала- ри хусусида.....	127
Қобилов Нозимжон Мингбоевич. Чақирикқа қадар бошланғич тайёргарлик жараёнида ёшларни ҳар- бий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш.....	130
Абдуллаев Фарход Хабибуллаевич. Инглиз ва ўзбек терговчилари нутқининг ўзига хос гендер хусу- сиятлари.....	133
Xudayqulova Shaxnoza Suvanovna. Nasriy asarlar matnida aksiologik birliklar talqini.....	138
Шокиров Шерали, Мамажонова Эъзозхон. Инглиз тилида "Taste-таъм-маза" семасини ифодаловчи сўзларнинг семантик хусусиятлари.....	142
Якубов Жамолитдин, Рўзметов Хамиджон. Турли тизимли тилларда "хушмуомалалик" категория- сининг расмий ёзма мулоқотларда қўлланиш хусусиятлари.....	146
Холissoва Гавхарой Маннобжон кизи. Тижорий мулоқот тавсифи.....	152
Kobilova Aziza Baxriddinovna. Ingliz va o'zbek tillari perifr azalari xususida.....	154
Сабирова Нилуфар Каримбаевна. Паронимия ва синонимиянинг лисоний муносабатлари.....	157
Жўраева Мақсуда Мухаммадовна. Ёзма матбуот дискурсининг функционал хусусиятлари.....	162
Камолов Ихтиёр Нигматуллаевич. Россия шарқшунослигида Бобур мавзуси.....	165
Saidjanova Zebo. Shoir So'fi tarjimai holiga doir yangi ma'lumotlar.....	167
Iskandarova Oyubibi Rahimbayevna. Talabalarda badiiy asar tahlili ko'nikmasini shakllantirishga doir.....	171
Muxtorova Maftuna Ithomovna. O'zbek she'riyatining inglizcha o'girmalarida vatanparvarlik g'oyasi ifo- dasida so'z tanlash muammosi.....	174
Бобоёров Шоҳжаҳон. Ёшларни ахборот таҳдидларидан ҳимоялашнинг миллий-маънавий асосла- ри.....	179
Кабулова Замира. Ноанъанавий талқин ифодаси ва бадийлик.....	184
Юлдашев Азиз Узгенович. Современное состояние изучения предикации в русской и узбекской фи- лологии.....	186
Abdurazakova Shakhida Rakhimovna. Аутентичные материалы как средство функционирования со- циокультурных лагун.....	189
Турсунова Шахноза Бердикуловна. Методы инновационных технологий в современном русском языке.....	192
Khamidova Durdona Mukhtorovna. Lexico-Morphological and Semantical Analysis of Professional Eco- nomic Terms in Uzbek Language Based on English.....	194

“ILM SARCHASHMALARI”

Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali

Muharrir Ro‘zimboy Yo‘ldoshev
Texnik muharrir Sherali Yo‘ldoshev
Musahhihlar: Tamara Turumova,
Aybek Kalandarov
Ushbu songa mas‘ul Aybek Kalandarov

Terishga berildi: 20.06.2021
Bosishga ruxsat etildi: 30.06.2021.
Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/8.
Rizograf bosma usuli. Tayms garniturası.
Adadi 150. Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma №. 19
Hisob-nashriyot tabag‘i 25
Shartli bosma tabag‘i 23
UrDU matbaa bo‘limida chop etildi.

UrDU matbaa bo‘limi matbaa faoliyatini boshlagani
haqida vakolatli davlat organini xabardor qilish to‘g‘risidagi
Tasdiqnoma (№3802-835f-ad22-c709-fbd1-1129-1986) asosida faoliyat yuritadi.

Manzil: 220110. Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy.
Telefon/faks: (0362)-224-66-01;
e-mail: ilmsarchashmalari@umail.uz
ilmsarchashmalari@mail.ru
Veb-sayt: www.ilmsarchashmalari.uz
Telegram: <https://t.me/ilmsarchashmalari>